

## Asosiy vositalarining holati va harakati

2024- yil uchun

- I. Asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha dinamikasi
- II. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati bo'yicha dinamikasi
- III. Iqtisodiyot tarmoqlarida yangi asosiy vositalarning ishga tushirilishi va tugatilishi
- IV. Asosiy vositalarning yangilanish va tugatilish koeffitsienti hamda eskirish darajasi dinamikasi
- V. Hududlar kesimida boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha yil oxiriga mavjud asosiy vositalar dinamikasi
- VI. Hududlar kesimida iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining yil oxiriga mavjud asosiy vositalari
- VII. Izohlar

### I. Asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha dinamikasi

2024- yil uchun yil boshiga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati **1 524 583,9** mlrd so'mni hamda yil oxiriga esa **1 721 078,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yil oxiri bilan taqqoslaganda **13,2** % ga o'sdi.

Ma'lumot uchun: Asosiy vositalar bu korxona tomonidan uzoq muddat (bir yildan ortiq) davomida ish faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqirish, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish jarayonida foydalanish uchun sotib olingan moddiy aktivlardir. Asosiy vositalar tarkibi quyidagilardan iborat: binolar, inshootlar, uzatish qurilmalari, mashinalar va asbob-uskunalar, kompyuter texnikalari, yordamchi qurilmalar, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari, hisoblash texnikalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik o'simliklar hamda boshqa turdagi asosiy vositalar.


#### Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha yil boshi va yil oxiriga mavjud asosiy vositalar, mlrd so'm

|                                                        | 2022- yil   |             | 2023- yil   |             | 2024- yil   |             |
|--------------------------------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
|                                                        | yil boshiga | yil oxiriga | yil boshiga | yil oxiriga | yil boshiga | yil oxiriga |
| Jami asosiy vositalar                                  | 1 133 480,7 | 1 311 412,9 | 1 312 145,8 | 1 519 843,8 | 1 524 583,9 | 1 721 078,7 |
| Ishlab chiqaruvchi tarmoqlar                           | 439 314,0   | 551 270,9   | 532 803,7   | 647 450,1   | 636 147,4   | 749 816,5   |
| Qishloq, o'rmon<br>va baliqchilik xo'jaligi            | 79 304,6    | 92 246,0    | 91 431,8    | 100 116,9   | 98 496,4    | 110 098,6   |
| Sanoat                                                 | 325 825,8   | 420 348,6   | 405 021,4   | 504 345,6   | 496 094,9   | 588 816,4   |
| Qurilish                                               | 34 183,6    | 38 676,3    | 36 350,5    | 42 987,6    | 41 556,1    | 50 901,5    |
| Xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar                          | 694 166,7   | 760 142,0   | 779 342,1   | 872 393,7   | 888 436,4   | 971 262,2   |
| Savdo, yashash va<br>ovqatlanish bo'yicha<br>xizmatlar | 31 270,7    | 38 164,0    | 41 723,5    | 48 980,7    | 50 102,9    | 60 009,6    |
| Tashish va saqlash, axborot<br>va aloqa                | 133 690,5   | 142 494,3   | 140 556,5   | 162 092,8   | 158 082,9   | 183 567,4   |
| Boshqa xizmat tarmoqlari                               | 529 205,5   | 579 483,7   | 597 062,1   | 661 320,2   | 680 250,6   | 727 685,2   |

2024- yil boshiga boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha jami asosiy vositalarning ishlab chiqaruvchi tarmoqlari **636 147,4** mlrd so'mni (**41,7 %**) tashkil etdi, xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar **888 436,4** mlrd so'm (**58,3 %**) hissasiga to'g'ri keldi.

Yil oxiriga esa boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha ishlab chiqaruvchi tarmoqlar **749 816,5** mlrd so'mni (**43,6 %**), xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar **971 262,2** mlrd so'm (**56,4 %**)ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha  
2024- yil oxiriga mavjud asosiy vositalar tarkibi**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida asosiy vositalarning eng yuqori ulushi boshqa xizmat tarmoqlarida – **42,3 %** ni va sanoat tarmog'ida – **34,2 %** ni tashkil etgan, eng kichik ulush qurilish tarmog'i – **3,0 %** hamda savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarmog'iga – **3,5 %** to'g'ri kelgan.

**II. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati bo'yicha dinamikasi**

2024- yilda qoldiq qiymati bo'yicha asosiy vositalarning yil boshiga qiymati **1 068 488,6** mlrd so'm bo'lgan, yil oxiriga kelib **1 196 030,2** mlrd so'mni tashkil etdi. Asosiy vositalarning yil oxiriga ko'rsatkichi yil boshiga nisbatan **11,9 %** ga oshgan.

**Qoldiq qiymati bo'yicha yil boshi va yil oxiriga mavjud asosiy vositalar, mlrd so'm**

|                                                  | 2022- yil   |             | 2023- yil   |             | 2024- yil   |             |
|--------------------------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
|                                                  | yil boshiga | yil oxiriga | yil boshiga | yil oxiriga | yil boshiga | yil oxiriga |
| Jami asosiy vositalar                            | 839 595,7   | 951 627,8   | 910 341,3   | 1 073 745,2 | 1 068 488,6 | 1 196 030,2 |
| Ishlab chiqaruvchi tarmoqlar                     | 306 399,2   | 393 914,0   | 334 635,9   | 453 524,2   | 412 180,6   | 511 136,9   |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi         | 61 196,5    | 84 949,0    | 64 593,1    | 91 783,7    | 70 661,1    | 99 656,4    |
| Sanoat                                           | 222 311,6   | 281 931,1   | 246 903,2   | 332 285,4   | 315 783,2   | 376 234,2   |
| Qurilish                                         | 22 891,0    | 27 033,8    | 23 139,6    | 29 455,1    | 25 736,3    | 35 246,3    |
| Xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar                    | 533 196,6   | 557 713,8   | 575 705,3   | 620 221,0   | 656 308,0   | 684 893,3   |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 23 481,8    | 29 299,2    | 31 902,1    | 37 988,1    | 37 032,6    | 45 721,1    |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa             | 72 463,2    | 71 763,8    | 72 083,7    | 82 941,9    | 76 120,9    | 89 246,3    |
| Boshqa xizmat tarmoqlari                         | 437 251,5   | 456 650,8   | 471 719,6   | 499 291,0   | 543 154,5   | 549 925,9   |

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari kesimidagi tahliliga ko'ra, 2024- yilda asosiy vositalarning yil oxiriga qoldiq qiymati bo'yicha ishlab chiqaruvchi tarmoqlar **511 136,9** mlrd so'mni (jami asosiy vositalarga nisbatan **42,7 %**) tashkil etgan, xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar ulushi **684 893,3** mlrd so'mga teng (jami asosiy vositalarga nisbatan **57,3 %**).

Ishlab chiqaruvchi tarmoqlar orasida eng yuqori ulush sanoat tarmog'iga (**376 234,2** mlrd so'm), xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar orasida esa boshqa xizmat tarmoqlari (**549 925,9** mlrd so'm) hissasiga to'g'ri kelgan.

### III. Iqtisodiyot tarmoqlarida yangi asosiy vositalarning ishga tushirilishi va tugatilishi

2024- yilda jami yangi ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymati **232 326,5** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilda bu ko'rsatkich **253 536,2** mlrd so'm bo'lgan.

#### Yangi asosiy vositalarning ishga tushirilishi va tugatilishi, mlrd so'm

|                                                        | Yangi asosiy vositalarning<br>ishga tushirilishi |           |           | Asosiy vositalarning tugatilishi |           |           |
|--------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|-----------|-----------|----------------------------------|-----------|-----------|
|                                                        | 2022- yil                                        | 2023- yil | 2024- yil | 2022- yil                        | 2023- yil | 2024- yil |
| Jami asosiy vositalar                                  | 183 902,9                                        | 253 536,2 | 232 326,5 | 38 377,8                         | 59 281,8  | 50 916,4  |
| Ishlab chiqaruvchi<br>tarmoqlar                        | 108 292,8                                        | 155 985,6 | 153 781,9 | 30 580,4                         | 48 086,7  | 38 837,6  |
| Qishloq, o'rmon<br>va baliqchilik<br>xo'jaligi         | 30 172,2                                         | 28 566,6  | 32 954,2  | 14 275,7                         | 15 963,7  | 18 089,2  |
| Sanoat                                                 | 70 878,3                                         | 117 827,5 | 109 196,2 | 14 154,2                         | 30 213,9  | 17 605,5  |
| Qurilish                                               | 7 242,3                                          | 9 591,5   | 11 631,5  | 2 150,5                          | 1 909,1   | 3 124,9   |
| Xizmat ko'rsatuvchi<br>tarmoqlar                       | 75 610,1                                         | 97 550,5  | 78 544,6  | 7 797,3                          | 11 195,1  | 12 078,8  |
| Savdo, yashash va<br>ovqatlanish bo'yicha<br>xizmatlar | 8 814,3                                          | 10 497,0  | 13 596,7  | 931,0                            | 3 620,9   | 3 368,0   |
| Tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 11 469,9                                         | 20 272,4  | 26 068,6  | 2 949,7                          | 3 122,4   | 4 027,4   |
| Boshqa xizmat<br>tarmoqlari                            | 55 325,9                                         | 66 781,1  | 38 879,3  | 3 916,6                          | 4 451,8   | 4 683,3   |


2024- yilda **50 916,4** mlrd so'mlik asosiy vositalar tugatilgan bo'lib, asosiy vositalarning chiqib ketish (tugatilish) koeffitsiyenti (chorva mollarini hisobga olmagan holda) **2,3 %** ni tashkil etgan.

### IV. Asosiy vositalarning yangilanish va tugatilish koeffitsiyenti hamda eskirish darajasi dinamikasi

So'nggi uch yil mobaynida (2022-2024- yillar) iqtisodiyotda asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti **12,8 %** dan **12,4 %** oralig'ida o'zgarib turgani va o'rtacha **12,6 %** ni tashkil etganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti bo'yicha tarmoqlar kesimidagi tahliliga ko'ra, eng yuqori ulush qurilish – **22,9 %**, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **22,7 %** hamda sanoat tarmoqlariga – **18,5 %** to'g'ri kelsa, boshqa xizmat tarmoqlari esa eng kam ulush – **5,3 %** ga ega.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy vositalarning yangilanish va chiqib ketish (tugatilish) ko'effitsiyenti dinamikasi**



2024- yilda jami asosiy vositalarning chiqib ketish (tugatilish) ko'effitsiyenti – **2,3 %** ni tashkil etib, tarmoqlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (chorva mollarini hisobga olmagan holda) – **4,2 %**, sanoatda – **3,5 %**, qurilishda – **7,6 %**, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **6,7 %**, tashish va saqlash, axborot va aloqa – **2,5 %** hamda boshqa xizmat tarmoqlarida **0,7 %** ni tashkil etgan.

**Asosiy vositalarning yangilanish va tugatilish ko'effitsiyenti hamda eskirish darajasi, % da**

|                                                  | Yangilanish ko'effitsiyenti |           |           | Chiqib ketish (tugatilish) ko'effitsiyenti |           |           | Eskirish darajasi |           |           |
|--------------------------------------------------|-----------------------------|-----------|-----------|--------------------------------------------|-----------|-----------|-------------------|-----------|-----------|
|                                                  | 2022- yil                   | 2023- yil | 2024- yil | 2022- yil                                  | 2023- yil | 2024- yil | 2022- yil         | 2023- yil | 2024- yil |
| Jami asosiy vositalar                            | 12,8                        | 15,7      | 12,4      | 2,3                                        | 3,5       | 2,3       | 28,7              | 30,6      | 31,6      |
| Ishlab chiqaruvchi tarmoqlar                     | 17,1                        | 22,4      | 18,5      | 4,4                                        | 7,0       | 3,9       | 31,8              | 33,0      | 34,7      |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi         | 18,2                        | 9,4       | 12,7      | 2,5                                        | 3,2       | 4,2       | 19,9              | 20,9      | 20,2      |
| Sanoat                                           | 16,9                        | 23,4      | 18,5      | 4,3                                        | 7,5       | 3,5       | 32,9              | 34,1      | 36,1      |
| Qurilish                                         | 18,7                        | 22,3      | 22,9      | 6,3                                        | 5,3       | 7,6       | 30,1              | 31,5      | 30,8      |
| Xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar                    | 9,9                         | 11,2      | 8,1       | 1,1                                        | 1,4       | 1,4       | 26,6              | 28,9      | 29,5      |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 23,1                        | 21,4      | 22,7      | 3,0                                        | 8,7       | 6,7       | 23,2              | 22,4      | 23,8      |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa             | 8,0                         | 12,5      | 14,2      | 2,2                                        | 2,2       | 2,5       | 49,6              | 48,8      | 51,4      |
| Boshqa xizmat tarmoqlari                         | 9,5                         | 10,1      | 5,3       | 0,7                                        | 0,7       | 0,7       | 21,2              | 24,5      | 24,4      |

2024- yilda jami asosiy vositalarning eskirish darajasi **31,6 %** ni tashkil etib, tarmoqlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (chorva mollarini hisobga olmagan holda) – **20,2 %**, sanoatda – **36,1 %**, qurilishda – **30,8 %**, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **23,8 %**, tashish va saqlash, axborot va aloqa – **51,4 %** hamda boshqa xizmat tarmoqlarida **24,4 %** ga yetgan.

#### **V. Hududlar kesimida boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha yil oxiriga mavjud asosiy vositalar qiymati dinamikasi**

2024- yil oxiriga respublika bo'yicha asosiy vositalarning umumiy qiymatidagi eng katta ulush Toshkent shahri – **465 353,7** mlrd so'm, Toshkent viloyati – **176 396,7** mlrd so'm va Qashqadaryo viloyati – **140 893,0** mlrd so'mga to'g'ri keldi. Respublika asosiy vositalarining umumiy qiymatida eng kam ulushlar Sirdaryo (**39 199,5** mlrd so'm), Jizzax (**72 226,2** mlrd so'm) va Namangan (**77 003,1** mlrd so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

#### **Hududlar kesimida boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha yil oxiriga mavjud asosiy vositalar, mlrd so'm**

|                               | <b>2022- yil</b> | <b>2023- yil</b> | <b>2024- yil</b> |
|-------------------------------|------------------|------------------|------------------|
| O'zbekiston Respublikasi      | 1 311 412,9      | 1 519 843,8      | 1 721 078,7      |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 72 602,7         | 86 635,0         | 99 026,3         |
| Andijon viloyati              | 60 726,8         | 70 232,6         | 79 678,9         |
| Buxoro viloyati               | 71 170,3         | 83 395,3         | 95 786,7         |
| Jizzax viloyati               | 57 875,2         | 65 362,7         | 72 226,2         |
| Qashqadaryo viloyati          | 96 873,3         | 131 535,4        | 140 893,0        |
| Navoiy viloyati               | 95 072,7         | 115 442,2        | 129 567,0        |
| Namangan viloyati             | 52 495,1         | 57 616,6         | 77 003,1         |
| Samarqand viloyati            | 90 147,3         | 100 992,7        | 114 628,4        |
| Surxondaryo viloyati          | 68 900,0         | 70 128,2         | 75 283,5         |
| Sirdaryo viloyati             | 29 697,9         | 36 360,8         | 39 199,5         |
| Toshkent viloyati             | 134 972,8        | 160 463,1        | 176 396,7        |
| Farg'ona viloyati             | 79 299,6         | 87 664,2         | 91 587,1         |
| Xorazm viloyati               | 48 252,5         | 57 087,1         | 64 448,5         |
| Toshkent sh.                  | 353 326,5        | 396 927,9        | 465 353,7        |

#### **VI. Hududlar kesimida iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining yil oxiriga mavjud asosiy vositalari**

Iqtisodiy faoliyat turlarining hududlar kesimidagi tahlili natijalariga ko'ra, 2024- yil uchun qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida Toshkent (**11 533,3** mlrd so'm), Qashqadaryo (**11 186,3** mlrd so'm) hamda Buxoro (**10 540,2** mlrd so'm) viloyatlari yuqori salmoqqa ega bo'lsa, sanoat tarmog'ida esa Toshkent shahri (**189 254,7** mlrd so'm), Toshkent (**80 006,5** mlrd so'm) hamda Navoiy (**77 354,3** mlrd so'm) viloyatlari yuqori hissaga ega.

**2024- yilda hududlar kesimida iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatining yil oxiriga mavjud asosiy vositalari, mlrd so'm**

|                               | Jami asosiy vositalar | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | Sanoat    | Qurilish | Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | Tashish va saqlash, axborot va aloqa | Boshqa xizmat tarmoqlari |
|-------------------------------|-----------------------|------------------------------------------|-----------|----------|--------------------------------------------------|--------------------------------------|--------------------------|
| O'zbekiston Respublikasi      | 1 721 078,7           | 110 098,6                                | 588 816,4 | 50 901,5 | 60 009,6                                         | 183 567,4                            | 727 685,2                |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 99 026,3              | 6 490,0                                  | 22 865,0  | 2 457,0  | 1 548,2                                          | 35 637,4                             | 30 028,7                 |
| Andijon viloyati              | 79 678,9              | 7 100,2                                  | 31 580,9  | 2 284,8  | 1 878,4                                          | 3 965,3                              | 32 869,2                 |
| Buxoro viloyati               | 95 786,7              | 10 540,2                                 | 19 475,8  | 3 580,4  | 2 575,5                                          | 16 535,3                             | 43 079,4                 |
| Jizzax viloyati               | 72 226,2              | 7 067,3                                  | 18 105,0  | 2 258,3  | 1 436,6                                          | 9 843,7                              | 33 515,3                 |
| Qashqadaryo viloyati          | 140 893,0             | 11 186,3                                 | 54 288,7  | 2 791,1  | 2 314,1                                          | 10 549,9                             | 59 762,8                 |
| Navoiy viloyati               | 129 567,0             | 6 068,0                                  | 77 354,3  | 3 637,4  | 1 267,3                                          | 12 823,5                             | 28 416,4                 |
| Namangan viloyati             | 77 003,1              | 7 349,2                                  | 21 816,0  | 5 267,6  | 4 071,9                                          | 3 518,1                              | 34 980,3                 |
| Samarqand viloyati            | 114 628,4             | 13 244,7                                 | 21 244,9  | 2 945,9  | 9 168,8                                          | 11 031,2                             | 56 992,7                 |
| Surxondaryo viloyati          | 75 283,5              | 7 430,7                                  | 9 402,1   | 2 510,4  | 2 839,5                                          | 5 401,9                              | 47 698,7                 |
| Sirdaryo viloyati             | 39 199,5              | 4 696,1                                  | 9 743,3   | 1 021,6  | 1 061,3                                          | 5 038,2                              | 17 639,0                 |
| Toshkent viloyati             | 176 396,7             | 11 533,3                                 | 80 006,5  | 2 460,6  | 4 824,7                                          | 12 290,4                             | 65 281,2                 |
| Farg'ona viloyati             | 91 587,1              | 6 440,8                                  | 26 106,6  | 2 290,4  | 2 210,6                                          | 6 896,4                              | 47 642,2                 |
| Xorazm viloyati               | 64 448,5              | 9 290,6                                  | 7 572,4   | 2 591,4  | 2 834,1                                          | 5 850,7                              | 36 309,2                 |
| Toshkent sh.                  | 465 353,7             | 1 661,0                                  | 189 254,7 | 14 804,4 | 21 978,3                                         | 44 185,3                             | 193 469,9                |

Toshkent shahri boshqa hududlarga nisbatan barcha tarmoqlar orasida eng yuqori ulushga ega bo'lib, sanoatda – **189 254,7** mlrd so'm, qurilishda – **14 804,4** mlrd so'm, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **21 978,3** mlrd so'm, tashish va saqlash, axborot va aloqa – **44 185,3** mlrd so'm hamda boshqa xizmat tarmoqlarida **193 469,9** mlrd so'mni tashkil etdi.

## VII. Izohlar

Asosiy vositalarning takror ishlab chiqarilishi jarayonlarini va ulardan foydalanish natijalarini har tomonlama tavsiflash uchun asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati hamda qoldiq qiymati (eskirish qiymatini hisobga olmagan holda) bo'yicha hisobot balanslari ishlab chiqiladi.

Asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha balansi asosiy vositalarning hajmi, tuzilishi va tarkibini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Boshlang'ich qiymat hisobot davrida asosiy vositalarning sotib olish, o'rnatish hamda ishga tushirish narxlaridagi qiymatini ifodalaydi. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati inflyatsiya sur'atlarini hisobga olgan holda davriy qayta baholanadi. Asosiy vositalarning qayta baholanishdan keyingi qiymati qayta tiklash qiymati deb ataladi.

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati (eskirish qiymatini hisobga olmagan holda) bo'yicha balansi asosiy vositalar hajmi, taqsimlanishi va harakatini aks ettirib, asosiy vositalar qiymatining jamg'arilishini aniqlashda foydalaniladi. Ushbu balans, bir tomondan asosiy vositalar qiymatining o'sishini ifodalasa, boshqa tomondan esa, hisobdan chiqarish hamda iste'mol qilingan qismining mahsulot qiymatiga o'tishi natijasida asosiy vositalar qiymatining kamayishini aks ettiradi. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish uchun mo'ljallangan asosiy vositalar asta-sekin o'zining qiymatini yo'qotib boradi. Asosiy vositalarning iste'mol qilingan qismi o'rnatilgan me'yorlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini (eskirish qiymati) ishlab chiqarish xarajatlariga kiritish orqali qoplanadi.

Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti yil davomida ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymatining yil oxiridagi asosiy vositalar qiymatiga nisbati orqali ifodalanadi.

Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsienti tugatilgan asosiy vositalar qiymatining yil boshida mavjud bo'lgan barcha asosiy vositalar qiymatiga nisbati orqali ifodalanadi.

Asosiy vositalarning eskirish darajasi – asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) va qoldiq qiymati o'rtasidagi farqning yil oxiridagi boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatiga nisbati orqali hisoblanadi.

